

## 18-dars

### Darsning mavzusi: Gap va uning turlari (49 – 52-mashqlar)

**Darsning ta'limiylar maqsadi:** gap, uning turlari haqida bilimlarni aniqlash va matnni ohang yordamida gaplarga ajratishga, gap oxirida zarur tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga o'rgatish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglab, ifodalay olish, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila olish; gapning turlarini farqlay olish, gapning ohangiga ko'ra tinish belgilarini (nuqta, so'roq, undov belgilari) ishlata olish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** dangasalik va erinchoqlikini yomon oqibatlaari haqida o'quvchilar ongiga singdirish; mustaqil o'qib-o'rganish va bilimini muntazam oshirib borishga o'rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** bog'lanishli nutqi va lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish; o'qituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, o'zaro savol-javob, topshiriqlarni, kichik matnlarni, mavzu doirasidagi video va audio matnlarini tinglab tushuna olish.

**Dars turi:** yangi bilimlarni hosil qiluvchi dars

**Darsning metodi:** suhbat, analiz, mustaqil ish metodi, "So'z tuz" ta'limiylar o'yini

**Darsning jihizi:** mavzuga oid rasmlar, turli so'zlar yozilgan tarqatmalar, multimedia ilovalari.

#### Darsning borishi

##### I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

##### II.O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

###### Husnixat daqiqasi:

*So'rab-so'rab o'rgangan olim,  
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.*

Uyga berilgan 48-mashq tekshiriladi, o'quvchilar daftari nazorat qilinadi.

##### III.Yangi mavzu bayoni:

Gap va uning turlari mavzusi qoida asosida taqdimotlardan foydalanib tushuntiriladi.

**Gap** tugallangan fikrni bildiradi. Yozuvda har bir gapning birinchi so'zi **bosh harf** bilan boshselanadi.

**Gap oxiriga nuqta (.), so'roq belgisi (?), undov belgisi (!) qo'yiladi.  
Nuqta, so'roq va undov belgisi tinish belgilari deb ataladi.**

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**49-mashq** ustida og'zaki ishlanadi.

Hikoya o'quvchilarga o'qitilib, mazmuni ustida suhbatlashiladi. O'quvchilar fikrlari tinglanadi. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

- Matnda nechta gapga nuqta, nechta gapga so'roq belgisi va nechta gapga undov belgisi qo'yilganligini sanang.

- Matndan nuqta, so'roq va undov belgisi qo'yilgan gaplarni topib, xuddi shunga o'xhashh bittadan misol yozing.

- Sizningcha, Gulrux qanday qiz? Uning qanday qiz ekanini o'z fikringiz orqali bitta gap bilan ta'riflab yozing.

- Muallif nima uchun hikoyani "O'qituvchim – sirdoshim" deb nomlagan? O'ylab ko'ring, hikoyani yana qanday nomlash mumkin? Fikringizni izohlang.

**50-mashq.** Maktabingizdagi dildan suhbatlasha oladigan ustozingiz haqida matn yozing. Tuzgan matningizda *darak, so'roq va buyruq* gaplardan foydalaning.

Bu mashqni bajarish o'quvchilardan mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish kabi ko'nikmalarni talab qiladi. O'quvchilar o'zlari tuzgan hikoyalarini sinfdoshlari davrasida o'qib beradilar. Tuzilgan matnlardagi *darak, so'roq va buyruq* gaplar birgalikda tahlil qilinadi.

**51-mashq** yozma bajariladi. O'quvchilar berilgan savollarga yozma javob beradilar.

1. Siz Gulruxning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz? Fikringizni uch yoki to'rtta gap bilan ifodalang.

2. "O'qituvchim – sirdoshim" mavzusida bir-biriga mazmunan bog'liq uchta gap tuzing. Ulardan biri nuqta, biri so'roq belgisi, biri undov belgisi bilan tugasin.

#### **IV. Darsga yakun yasash va baholash.**

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

#### **V. Uyga vazifa berish.**

**52-mashq** sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.